



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*i.f.d., prof. **Mirzayev Qulmamat***

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0008-8558-2455

mirzayevkulmamat@gmail.com

Ulmasova Oygul

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik

va biotexnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0000-9488-6532

ulmasovaoigul8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatining olib borilayotganligi tufayli uning iqtisodiyotdagi o'rni va roli ortib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan, hamda jahonning yetakchi davlatlarining tajribalari misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, kichik biznes, innovatsiya, ilmiy-tadqiqot, texnologik ishlar, xususiy mablag'lar, aylanma mablag'lar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОДЕЙСТВИЯ РАЗВИТИЮ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ УСЛУГ

*д.э.н., проф. **Мирзаев Кулмат***

Самаркандский институт экономики и сервиса

Улмасова Ойгуль

Самаркандский государственный университет

ветеринарной медицины, животноводства и

биотехнологии

Аннотация. В статье рассматривается возросшая роль и место малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике в связи с реализацией политики стимулирования и поддержки развития малого бизнеса и частного предпринимательства в сфере услуг, на примерах представлен опыт ведущих стран мира.

Ключевые слова: оказание услуг, малый бизнес, инновации, научные исследования и разработки, технологические работы, частные средства, оборотный капитал.

IMPROVING MECHANISMS FOR PROMOTING THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SERVICE SECTOR

DSc, prof. Mirzayev Kulmamat

Samarkand Institute of Economics and Service

Ulmasova Oygul

Samarkand State University of Veterinary Medicine,

Animal Husbandry and Biotechnology

Abstract. *The article examines the increased role and place of small business and private entrepreneurship in the economy in connection with the implementation of policies to stimulate and support the development of small business and private entrepreneurship in the service sector, using examples from the experience of leading countries of the world.*

Keywords: *service provision, small business, innovation, research and development, technological work, private funds, working capital.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyot taraqqiyotini jadal rivojlantirishning muhim asoslaridan biri xizmat ko'rsatish sohasini tizimli rivojlantirish hisoblanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish taraqqiyoti esa tadbirkorlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga asoslangan servisga ustuvorlik berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da belgilangan 34 - maqsaddan kelib chiqib, belgilab berilgan "Hududlarning xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish...", "...Shuningdek yul bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish ob'ektlarni tashkil etish" (Taraqqiyot strategiyasi, 2022). Bunda eng muhimi "Xizmatlar sohasini jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish" vazifani amalga oshirishga ustuvorlik berishni taqazo etadi.

Respublikada "O'zbekiston-2030" strategiyasida qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib, "...tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishlari uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish", hamda "kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish ... innovatsiyalar hamda START-UP larni qo'llab-quvvatlash" vazifalarini amalga oshirish ustuvor vazifalardan biridir.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiy barcha tarmoq hamda sohalar, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion asosda rivojlantirish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini tizimli hamda innovatsion rivojlantirishda kichik biznes faoliyat turi alohida ahamiyat kasb etib, soha taraqqiyotini muhim harakatlantiruvchisi sifatida chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahondagi bu sohadagi o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan quyidagi etakchi olimlarning o'z ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Fransuz iqtisodchisi Kantil'on (1992) bergan ta'rifiga ko'ra "tadbirkor voqiya va hodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasiga barcha ma'suliyatni olib tavakkal qiluvchi, o'z xatti harakatlari tufayli daromad olishga umid qiluvchi va har qandan yuqotishlarga tayyor bo'lgan shaxsdir".

Bu borada chuqur tadqiqot olib borgan boshqa bir iqtisodchi Shumpeter (1883-1950) ta'kidlashicha "tadbirkor – bu novator, ya'ni yangilik yaratuvchi odam" sifatida ta'riflagan. Shuningdek, uning fikricha, "tadbirkorning vazifasi yangi kashfiyotlarni amalga tadbqiq qilish

orqali ishlab chiqarish uslubini reforma qilish (yangilash)dan iborat” deb hisoblaydi. Shu bilan birga tadbirkorning faoliyatini keng ma’noda ko’rib, yangi ochilgan bozor yoki xom ashyo bazasi asosida yangi tovar ishlab chiqarish yoki eskirganini modernizatsiya qilish uchun yangi texnologiyalar ishlatishdan iborat degan fikrni ilgari surgan.

Amerikalik iqtisodchilardan, Makkonnel va Bryu (2020) fikricha, “tadbirkor tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va “katalizator” vazifasini bajaradi”.

Respublikamiz iqtisodchilaridan, Shodmonov, Raxmatovlarning (2019) e’tirof etishicha “...tadbirkorlik biznesdan farq qilib, tadbirkorlik – maxsulot ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog’liq faoliyatdir. Biznes – esa unga nisbatan keng tushuncha bo’lib, umuman foyda olish nuqtayi nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir”.

O’zbek olimlari A.O’lmasov va M.Sharifxo’jaevlar “ biznes keng ma’nodagi qonuniy yo’l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir... Tadbirkorlik – kishilar (mulkchilik subyektlari)ning moddiy va pul mablag’larini (kapitalini) amalda xo’jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo’ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi”¹, deb ta’rif beradilar.

Shu bilan birga Respublikamizning yetakchi olimlaridan biri G’ulomovning (2002) e’tirof etishicha “tadbirkorlik faoliyati – biznesning bir shakli sifatida namoyon bo’ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi”, shu bilan birga uning fikricha “tadbirkor – to’la yoki qisman moddiy mablag’ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo’lgan g’ayratli inson bo’lib, u ushbu resurslarni o’z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi”.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma’lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlash siyosatining olib borilayotganligi tufayli uning iqtisodiyotdagi o’rni va roli ortib bormoqda.

Xalqaro tajribalardan ma’lumki mamlakatning iqtisodiy salohiyatida kichik biznesning roli g’oyatda kattadir. Boshqacha qilib aytganda, u davlatning barcha tarmoq va sohalarini muvaffaqiyatli rivojlanishi va go’llab-quvvatlashining garovidir.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, iqtisodiyotda kichik biznesning roli va salmog’iga qarab, respublika iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida taraqqiy ettirish belgilab beradi. Ayniqsa, bu borada jahon amaliyoti kichik biznes va tadbirkorlikni mamlakatdagi faolligini ifodalash bo’yicha xalqaro reyting – **“Biznes yuritish(Doing Business)”** reytinggi shakllantirilgan va respublikamiz mazkur reytingda keyingi yillarda 69-o’rin (2022) ekanligi e’tirof etilgan (1-jadval).

O’zbekistonning “Doing Business” xalqaro reytingidagi o’rnini yaxshilashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

birinchidan, iqtisodiyotda tarmoq va sohalar, shu jumladan xizmat ko’rsatish tadbirkorlik subyektlari uchun to’siqlarsiz kredit olishni ta’minlash;

ikkinchidan, iqtisodiyotda qarzdorlar va kreditorlarning ta’minlangan bitimlar bo’yicha huquqlarini kengaytirish, kreditt ma’lumoti almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish;

uchinchidan, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

¹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article_31_0.pdf

to'rtinchidan, iqtisodiyotda to'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish masalalarini takomillashtirish va boshqalardan iborat.

1-jadval

“Biznes yuritish-2022(Doing Business)” bo'yicha sobiq ittifoq davlatlari reytingi ²

T/r	Mamlakatlar nomi	Jahondagi o'rni	T/r	Mamlakatlar nomi	Jahondagi o'rni
1.	Gruziya	7	8.	Armaniston	47
2.	Litva	11	9.	Moldava	48
3.	Estoniya	18	10.	Belarus	49
4.	Latviya	19	11.	Ukraina	64
5.	Qozog'iston	25	12.	O'zbekiston	69
6.	Rossiya	25	13.	Qirg'iziston	80
7.	Ozarbayjon	34	14.	Tojikiston	106

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544 sonli farmonidab kelib chiqib, Respublika iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish strategiyasiga muvofiq kichik biznesni rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1. O'zbekistonning 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

2. Barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

3. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

4. Innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini ko'chaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

5. Boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

6. Mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

7. Barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Respublikamizda kichik biznes korxonalarini milliy iqtisodiyotdagi o'rni oshib borishi, kichik biznes korxonalarining huquqiy asoslarini shakllantirishni ta'qazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, kichik korxonalar, ularda ishlovchi soniga qarab ajratiladi (G'ulomov, 2002):

- sanoat va qurilishda 50 nafargacha;
- fan va ilmiy xizmatda – 10 nafargacha;
- qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 25 nafargacha;
- noishlab chiqarish sohasida – 10 nafargacha;
- chakana savdoda – 5 nafargacha;
- ishchisi bo'lgan korxonalar, kichik biznes subyektlari qatoriga kiritilgan.

Yuqorilardan kelib chiqib, tarmoqlarda kichik biznes korxonalarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni quyidagicha qilib belgilangan:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va mashinasozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 200 kishidan;

² <https://www.gazeta.uz/uz/2019/10/24/doing-business>

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlantirish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti tizimli rivojlanayotgan bir sharoitda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik eksport bozorlari, shu bilan birgalikda xizmatlar bozori faoliyatlarida muntazam ishtirok etib, YaIMning ko'payishiga qo'maklashib, aholi bandligini ta'minlab, iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlaydi, shu sababli rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikka iqtisodiy o'sish hamda aholi turmush darajasining o'sishini ta'minlovchi asosiy richaglardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovasion rivojlantirish – bu xizmatlar sohasini jadal taraqqiyotini ta'minlab berishda kichik biznes subyektlari faoliyatini innovasion (yangi g'oya, yangi fikr hamda yangi innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan) taraqqiyot talablari asisida rivojlanish faoliyatidan iboratdur. Bunday faoliyat xizmat ko'rsatish sohasini teskor rivojlantirish uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi. Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini jadal innovatsion rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi kichik biznes samarali amalga oshirish uchun uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslanildi (1-rasm). Bunday xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Xizmatlar ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari:

Kichik biznesda innovatsiya shaxsiy fazilatlari xizmatlarini e'tiborga yuqoriligi;

Faoliyat yuritishning tashkil qilishda katta mablag' talab qilinmasligini;

Kichik biznes korxonada ishlovchilarning xarakatini bajarishning hudud jihatidan cheklanganligi;

Kichik biznesda tor mutaxassislik bo'yicha chuqur malaka va ko'nikmalarini taqozo etish;

Kichik biznes korxonalari aksariyat hollarda xususiy (shaxsiy) mulkka asoslanganligi;

Kichik biznes korxoanlarining moliyaviy natijalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda faoliyat yo'nalishlari bevosita bog'langan.

1-rasm Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovasion rivojlantirishning muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda subyektlarga turli biznes yuritish imkoniyatlarini berish;
- xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni amalga oshirishda lisenziya hamda ruxsatnomalar berish tartib qoidalarini soddalashtirish;
- aylanma mablag'lar asosida faoliyat yurituvchi xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes korxonalariga qo'shimcha moliyaviy ko'mak berish;
- kichik biznes korxonalariga turli soliq va boshqa imtiyozlar berish yo'llarini kengaytirish;
- respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik dastur doirasida kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish;
- xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro moliya institutlari tomonidan beriladigan kreditlar hamda boshqa moliyaviy ko'maklardan keng foydalanish va boshqalardan iborat.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- G'ulomov S.S. (2002) *Tadbirkorlik va kichik biznes, "Sharq" nashriyoti Toshkent, -27 b.*
- Kantilyon R. (1992) *Predprinimatelstvo v konce 20 veka. – M.: -20 b.*
- Makkonnel K.R., Bryu S.L. (2020) *Nomi: "Iqtisodiyot tamoyillari, muammolari va siyosati" - Nashriyot: "O'zbekiston" nashriyoti ISBN: 978-9943-1234-56.*
- Shodmonov Sh., Raxmatov M. (2019). *Iqtisodiyot nazariyasi: fanining ikki chigal tuguni va uning yechimi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.*
- Shumpeter Y. (1883-1950) *"Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi". Moskva.*
- Taraqqiyot strategiyasi (2022) <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.